

ONA O‘LIMIDA QOG‘ANOQ SUVLAR ELEMENTLARI BILAN EMBOLIYANING GISTOLOGIK JIHATLARI

Xusanova Moxichexra Nodir qizi
Samarqand davlat tibbiyot Universiteti
Davolash ishi fakulteti
5 bosqich talabasi

Xasanova Dilshoda Yunusovna
Respublika sud-tibbiy ekspertiza
ilmiy-amaliy Markazi Toshkent viloyati
filiali sud-gistologiya bo‘limi eksperti

Annotatsiya: Qog‘anoq suvlari bilan emboliya – tug‘ruqdagi ayol qon tomir tizimiga amniotik suyuqlikni tushishi natijasidagi patologik holat bo‘lib, shok, nafas yetishmovchiligi, gipoksiya, koagulopatiya rivojlanishi bilan xarakterlanadi.

Kalit so‘zlar: qog‘anoq suvlari, homiladorlarni anafilaktoid sindromi, DVS sindrom.

HISTOPATHOLOGICAL FEATURES OF AMNIOTIC FLUID DEBRIS EMBOLISM IN MATERNAL MORTALITY

Mokhichekhra N. Khusanova
5th-year Student, Faculty of General Medicine,
Samarkand State Medical University,
Samarkand, Uzbekistan.

Dilshoda Y. Khasanova
Forensic Histology Department,
Tashkent Regional Branch,
Republican Scientific and Practical
Center of Forensic Medical Examination,

Abstract: Amniotic fluid embolism is a pathological condition resulting from the entry of amniotic fluid into the maternal vasculature during labor. It is characterized by the development of shock, respiratory failure, hypoxia, and coagulopathy. Tashkent, Uzbekistan.

Keywords: amniotic fluid, anaphylactoid syndrome of pregnancy, disseminated intravascular coagulation (DIC).


Mavzuning dolzarbligi: Bugungi kunda qog‘anoq suvlari bilan emboliya onalar o‘limi strukturasida 10% ni tashkil qiladi, bu patologiyada o‘lim ko‘rsatkichi yuqori bo‘lib, 80-90% ga yetadi, 50% dan ortiq homilalar esa

asfiksiya yoki distress sindrom rivojlanishi oqibatida vafot etadi. Qog‘anoq suvlari bilan emboliya – homiladorlik va tug‘ruqning xavfli oqibatlarga olib keluvchi oldindan aytib bo‘lmaydigan asoratidir. U kam sezilarli simptomlardan to ona o‘limiga olib keladigan yurakning to‘satdan to‘xtashigacha bo‘lgan turli ko‘rinishda namoyon bo‘lishi mumkin. Tashxis ko‘pincha istisno usuli bilan qo‘yiladi.

Qog‘anoq suvlari - tarkibida tuzlar, gormonlar, enzimlar, vitaminlar, biologik aktiv moddalar (serotonin, gistamin, prostoglandin), tromboplastin va homila hayot faoliyati mahsulotlarini saqlovchi murakkab kimyoviy tarkibga ega bo‘lgan kolloid eritma bo‘lib, uning tarkibi homiladorlik muddati, ona va homila organizmlari holatiga bog‘liq holda o‘zgarib boradi. Qon tomir tizimiga qog‘anoq suvlarni o‘tishi bachadon yoki bachadon bo‘yni yirtilishi, kesar kesish operatsiyasi, pardalar rivojlanishi anomaliyalari, amnion va ona qon tomirlari orasida patologik bog‘liklik bo‘lganda ro‘y beradi. Mazkur patologiyani rivojlanish omillariga yo‘ldoshning zich birikishi, me‘yoriy joylashgan yo‘ldoshni erta ko‘chishi, hamda ko‘psuvlilik, ko‘phomilalik, tez tug‘ruq faoliyati, homila pufagini kech ochilishi va bachadon atoniyasida rivojlanuvchi bachadon ichi gidrostatik bosimi ortishi kiradi [1;29]. Qog‘anoq suvlari bilan emboliyada shikastlangan qon tomirlardan homila oldi suvlari qon tomir tizimiga o‘tadi va pastki kovak vena orqali yurak o‘ng bo‘lmachasiga, u yerdan o‘pka arteriyasiga boradi hamda o‘pkaning yirik va mayda qon tomirlarida mexanik obstruksiyaga olib keladi, bu esa o‘z navbatida o‘pka perfuziyasini buzilishi, vazokonstriksiya, o‘pka arteriyasida bosim ortishi, o‘ng qorincha yetishmovchiligiga sabab bo‘ladi. Homila oldi suvlari tarkibida tromboplastinsimon, antifibrinolitik faollikka ega bo‘lgan moddalar prokoagulyant tizimni faollashtirib DVS sindrom rivojlanishiga olib keladi, bu asorat ko‘pincha tug‘ruq jarayoning oxirida kuzatiladi. Onaning qon tomir tizimiga qog‘anoq suvining tushishi qon plazmasida bronxokonstriktor, hamda o‘pka va koronar vazokonstriktor bo‘lgan endotelin konsentratsiyasini oshiradi, bu esa respirator va yurak qon tomir kollapsini chaqirishi mumkin [2;10]. Shuningdek so‘nggi paytlarda qog‘anoq suvlari bilan emboliya amniotik suyuqlik tarkibidagi biologik faol moddalarga anafilaksiya, shuningdek “homiladorlarni anafilaktoid sindromi” sifatida ko‘rib chiqilmoqda. Homila oldi suvlari bilan emboliya jarayoni ikki bosqichda kechadi. Ona qon tizimiga vazoaktiv substansiyalarni tushishi birinchi bosqichni turtki mexanizmi hisoblanadi, bu o‘pka arteriyalarni spazmi, gipoksiya, og‘ir darajali o‘pka gipertenziyasi va o‘ng qorincha yetishmovchiligiga olib keladi, boshlang‘ich bosqichda onalar o‘limi 50% atrofni tashkil qiladi. Ikkinchi bosqich o‘pka arteriyasi, o‘pka kapillyarilari, markaziy venoz bosimni ortirishi va o‘pka shishi bilan xarakterlanuvchi chap qorincha yetishmovchiligi va gemodinamik

o'zgarishlar bilan boshlanadi. Endogen mediatorlarni (prostoglandin, leykotrien, gistamin, bradikinin, sitokin, tromboksan, trombositlarni faollashtiruvchi omillar) chiqishiga ona organizmini reaksiyasi – gemodinamik buzilishlar, koagulopatiya va DVS sindrom rivojlanishi, keyinchalik o'pka qon tomirlarini amniotik suyuqlik bilan embolizatsiyasi, prokoagulyant tizimni faollashuvi bilan xarakterlanadi, bu esa sirkulyator kollapsga olib keladi. Sud-tibbiy ekspertlar qog'anoq suvlari bilan emboliyani isbotlash va qog'anoq suvlari bilan emboliyani yuzaga kelish mexanizmini aniqlash zaruriyatiga duch kelishadi. Homila oldi suvlari bilan emboliyani sud tibbiy tashxislashda kasallik tarixi, autopsiya protokoli va gistologik tekshiruv ma'lumotlarini tahlili muhim ahamiyat kasb qiladi [3;49]. Makroskopiya o'pka vazni ortishi bilan tasdiqlanuvchi o'pka shishi xos bo'lib, o'pkalar xamirsimon konsistensiyada, yuzasi to'q olcha rangda, ba'zi joylarda pushti rangli sohalar bilan, kesib ko'rilganda ko'piklanuvchi pushti rangli suyuqlik aralash suyuq qon oqishi kuzatiladi. Mikroskopik tekshiruvda o'pka mikrosirkulyator o'zanining to'laqlonligi, interstitsial va alveolyar shishning morfologik ekvivalenti - ko'plab alveolalar bo'shlig'i va interstitsiyda pushti rangi suyuqli to'planishi, nafas faoliyatini o'tkir buzilishini tasdiqlovchi – ko'plab distelektaz o'choqlari, kompensator emfizema va bronxiolospazm, shuningdek mayda va o'rta kalibrdagi o'pka arteriyalari, alveolalararo to'siqlar kapillyarlarida amniotik suyuqlik elementlari – muguzlanuvchi epiteliy hujayralari, tukchalar, mekoniy va amorf massalar topiladi, o'pkadagi patomorfologik o'zgarishlar o'limga sabab bo'luvchi massiv interstitsial va interalveolyar shish chaqirgan o'pka arteriyalarining homila oldi suvlari bilan emboliyasi natijasidagi homiladorlik anafilaktoid sindromi rivojlanishining morfologik komponenti hisoblanadi. O'tkir yurak yetishmovchiligi miokardning o'tkir shikastlanishi va kengayishiga olib keladi, bu gistologik tekshiruvda kardiomiotsitlarning to'liqsimon kechishi, fragmentatsiyasi va o'choqli ishemik nekrozlari bilan namoyon bo'ladi. Bachadon to'qimasini mikroskopik tekshiruvda aksariyat qon tomirlarini bo'shligi, ayrimlarida esa homila oldi suvlari elementlari ko'riladi. DVS-sindrom bosh miya va parenximatoz a'zolar mikrosirkulyator o'zan qon tomirlarida staz, sladj, mikroangiopatiya, mikropolitromboz, in'eksiya joylardagi teri qoplamlari, ichki a'zolar parenxima va stromasi, shilliq va seroz qavatlarga ko'plab nuqtali va o'zaro qo'shiluvchi qon quyilishlar bilan namoyon bo'ladi, oshqozon, ingichka va yo'g'on ichaklar shilliq qavatlarida o'tkir eroziyalar paydo bo'ladi, bosh miyada perivaskulyar shish va miya moddasini bo'kishi, ensefalomalyatsiya o'choqlari, yurak bo'shligi, yirik qon tomirlar bo'shlig'ida suyuq qon qoldiqlari, gemoperikard, gemoperitoneum aniqlanadi. Ba'zi holatlarda subtotal nekronekroz, pankreonekroz, gepatotsitlarning sentrolobulyar nekrozlari, buyrak usti bezi po'stloq qavati hujayralarining degranulyatsiyasi va mag'iz qavatida gemorragik nekroz o'choqlari ko'riladi. Bizning amaliyotimizda uchragan qog'anoq suvlar elementlari bilan emboliya holatini misol tariqasida keltiramiz: 34 yoshli ayol, akusherlik kompleksida vafot etgan. Dastlabki sud – tibbiy tashxis: Asosiy: Jigar gepatozi – fibrozli

sirrozg'a o'tishi. Ikki tomonlama bronxopnevmoniya, o'ng tomonlama yopishqoq plevrit. Bachadon bo'yniga qon quyilishi, yo'ldosh chetining ko'chishi. Qorin devori, ikkala bilak va oyoq sohalari teri ostiga petixial qon quyilishi. Asosiy kasallik asorati: Ichki a'zolar kamqonligi, bosh miya va o'pka shishi, o'tkir yurak qon tomir yetishmasligi. DVS? Qog'anoq suvidan emboliya? Hamrox: Homiladorlik–2, tug'ruq-1, 39-hafta, tug'ruqdan keyingi qon ketish, epiziotomiyadan keyingi choklangan yara. Gepatosplenomegaliya. Yurak ishemik kasalligi. Ingichka va yog'on ichaklar yallig'lanishi. Tibbiy hujjatlari bo'yicha "psixonevrologik kasalliklar" bilan ro'yxatda turgan. Sud – gistologik tekshiruvda quyidagilar aniqlandi: O'pkalarda qog'anoq suvlari elementlari bilan emboliya – o'pka arteriyalarida homila oldi suvlari elementlari, ayrim bronxiolalarning spazmi, yirik o'choqlarda o'tkir emfizema, Sudan – III bilan bo'yalgan o'pka to'qimasi mayda qon tomir kapillyarlarida yog' emboliasining kuchsiz darajasini gistologik belgilari; yurakda kardiomiotsitlarning gipoksik distrofiyasi, tarqalgan o'tkir fragmentatsiyasi; bosh miya, miyacha yumshoq pardasi va moddasida shish, neyronlarning distrofik o'zgarishlari; a'zolarida gemodinamikaning o'tkir buzilishi, o'tkir distrofik o'zgarishlar; №№1,2 raqamlangan "O'ng o'pka ildiz sohasidan namunalar"da o'choqlarda o'tkir emfizema, o'choqli oraliq pnevmoniya; №№3,4 raqamlangan "Qizilo'ngach shilliq qavati boshlang'ich sohasidan namunalar"da qizinlo'ngachda qon quyilish belgilari aniqlanmadi; №1 raqamlangan "Yo'ldoshning qon quyilgan sohasidan namuna"da xorial plastinka sohasida o'choqli, mayda o'choqli qon quyilishlar; №1A raqamlangan "Bachadon"miometriysida kamqonlik, oraliq to'qimada shish; №2,№2A raqamlangan "Bachadon bo'yni qon quyilgan sohasidan namunalar"da ko'lamdor, tarqalgan qon quyilishlar leykotsitlar aralashmasi, eritrotsitlarning gemolizi bilan; hamrox: yurak ishemik kasalligining gistologik belgilari; o'pkalarda oraliq, mayda o'choqli leykotsitli pnevmoniya; jigarda disseminilashgan yog'li gepatoz.



1,2-rasm. O'pka to'qimasi qon tomirlarida qog'anoq suvlari elementlari (oq ko'rsatkich bilan ko'rsatilgan). Bo'yash gematoksilin – eozin bilan, X400

Xulosa: Sud tibbiyot amaliyotida qog'anoq suvlari bilan emboliya tekshirish uchun murakkab hisoblangan onalar o'limining sabablaridan biridir. Qog'anoq suvlari bilan emboliyada gistologik tekshiruv muhim ahamiyat kasb qiladi, shu bilan birga gistologik tekshiruv natijalari klinik va tanatogenetik ma'lumotlari bilan o'zaro bog'liq ravishda interpretatsiya qilinishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M. M. Tusupbekova, A. T. Kaydarova, M. S. Ukibay., “Klinika, patomorfologiya i struktura diagnoza pri embolii okoloplodnymi vodami”. Meditsina i ekologiya., 2014,4. S. 31-36.
2. Rossiyskoe obshchestvo akusherov – ginekologov, Assotsiatsiya akusherskix anestiziologov – reanimatologov., “Emboliya amnioticheskoy jidkostyu”. Klinicheskie rekomendatsii 2024; S. 8-13.
3. V. V. Vlasyuk, Yu. P. Panchuk, A. P. Bojchenko, I. A. Tolmachev., “Massivnaya emboliya okoloplodnymi vodami v protsesse rodov”. Sudebno – meditsinskaya ekspertiza 6,2018. S. 48-53.